Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 658

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

YANGI O‘ZBEKISTONDA KEKSALARGA IJTIMOIY XIZMAT KO‘RSATISHNING INSTITUTSIONAL MODELI

Hayotxon Ma’rufjon qizi Raximova*

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

✉ rahimovahayotcon6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekistonda keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimining institutsional transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi 2023–2026-yillarda shakllangan yangi ijtimoiy himoya arxitekturasining asosiy tarkibiy elementlarini aniqlash, uni Yaponiya va Shvetsiya tajribasi bilan qiyoslash hamda milliy sharoitga mos takomillashtirish mexanizmlarini taklif etishdan iborat. Tadqiqotda institutsional tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlili, qiyosiy benchmarking va nazariy sintez metodlaridan foydalanildi. Natijalar O‘zbekistonda model “institutsional konsolidatsiya – mahallada ehtiyojni aniqlash – individual baholash – keys-menejment – idoralararo xizmat – monitoring” zanjiri asosida shakllanayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, gerontologik baholashni standartlashtirish, yagona mas’ul keys-menejer institutini kuchaytirish, aging in place xizmatlarini kengaytirish va natijalarni funksional qobiliyat hamda avtonomiya orqali baholash zarurligi asoslandi. Muallif tomonidan keksalarga xizmat ko‘rsatishning yetti bo‘g‘inli integratsiyalashgan institutsional modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar

ijtimoiy xizmat, keksa inson, institutsional model, ijtimoiy ish, keys-menejment, integratsiyalashgan xizmat, aging in place.

DOI: 10.5281/zenodo.23402641

Kirish

Aholining qarishi zamonaviy ijtimoiy davlatlar uchun pensiya ta’minotidan tashqari uzoq muddatli parvarish, reabilitatsiya, uyda xizmat, transport, ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olish va kundalik mustaqillikni saqlash bilan bog‘liq yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli keksalarni ijtimoiy himoya qilish “yordam berish” modelidan ularning funksional qobiliyati, avtonomligi va jamiyatdagi ishtirokini saqlashga yo‘naltirilgan institutsional modelga o‘tmoqda.

O‘zbekistonda ham mazkur ehtiyoj strukturaviy tus olmoqda. 2026-yil boshida 65 yosh va undan katta erkaklar soni 1 062 077 nafar, ayollar soni esa 1 329 974 nafarni tashkil etgan.[1] Bu keksalarga xizmat ko‘rsatishni uzoq muddatli ijtimoiy siyosatning mustaqil yo‘nalishi sifatida ko‘rishni talab qiladi.

2023-yildan Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahalladagi ijtimoiy xodimlar institutining shakllanishi avval turli idoralarga tarqalgan xizmatlarni yagona boshqaruv tizimida birlashtirishga qaratildi. PF-82-son Farmonda ijtimoiy xodim zimmasiga xonadon holatini o‘rganish, ehtiyojni aniqlash, ijtimoiy pasport tuzish, keys-menejment va monitoring vazifalari yuklatildi.[2]

2024-yilgi 123-son qaror o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni baholash, individual xizmat rejasini ishlab chiqish va monitoring qilishni yagona jarayon sifatida belgiladi.[3] 2026-yildagi “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonun esa individual ehtiyoj, professionallik, tizimlilik va shaxs imkoniyatlarini kengaytirishni ijtimoiy ishning muhim prinsiplariga aylantirdi.[4]

Maqolaning maqsadi — Yangi O‘zbekistonda keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning shakllanayotgan institutsional modelini tahlil qilish, uni Yaponiya va Shvetsiya tajribasi bilan qiyoslash hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash.

Maqolaning ilmiy yangiligi mazkur tizimni institutsional konsolidatsiya → mahalliy aniqlash → kompleks baholash → individuallashtirish → integratsiya → monitoring → ijtimoiy natija zanjiri sifatida konseptualizatsiya qilishda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili

Y. Hasenfeldning inson xizmatlari tashkilotlari nazariyasi ijtimoiy xizmat tashkilotlarini insonning holati, imkoniyati va farovonligiga bevosita ta’sir qiluvchi institutlar sifatida ko‘radi. Bunday tashkilotlarda natija faqat resurs yoki tashkiliy tuzilma bilan emas, xizmat oluvchi va professional o‘rtasidagi munosabat bilan ham belgilanadi.[5, 9–11-b.]

OECD tadqiqotlari murakkab ehtiyojga ega keksalar uchun xizmatlarni provayder manfaatidan emas, foydalanuvchi ehtiyojidan kelib chiqib integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi.[6, 166–170-b.] Keksada sog‘liq, maishiy yordam, reabilitatsiya, transport, ijtimoiy aloqa va huquqiy maslahatga ehtiyoj bir vaqtda mavjud bo‘lishi mumkin. Shu bois xizmatlarning mavjudligi emas, ularning o‘zaro bog‘langanligi muhim.

WHOning ICOPE modeli ham baholash, individuallashtirilgan reja, amalga oshirish va monitoringni keksalarga xizmat ko‘rsatishning asosiy bosqichlari sifatida belgilaydi.[7] Aging in place konsepsiyasida esa keksa insonning tanish muhitda, zarur xizmat va qo‘llab-quvvatlash bilan imkon qadar uzoq yashashi markaziy tamoyil hisoblanadi.[8]

Mahalliy tadqiqotlarda Sh.M. Sodiqova keksalarning ijtimoiy himoyasi va jamiyatdagi mavqeini, M.X. G‘aniyeva, N.M. Latipova va hammualliflar esa keksalarga professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni ijtimoiy ish nazariyasi doirasida tahlil qilganlar.[9][10] Biroq institutsional tuzilma, keys-menejment va yakuniy funksional natijani yagona modelda birlashtirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy-tahliliy va qiyosiy-institutsional dizaynga asoslandi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining PF-82-son Farmoni, 539-son va 123-son qarorlari hamda O‘RQ-1159-son “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonun “institutsional boshqaruv”, “ehtiyojni aniqlash”, “individual reja”, “keys-menejment”, “idoralararo hamkorlik” va “monitoring” kategoriyalari bo‘yicha tahlil qilindi.

Ikkinchidan, 2020-yilgi ILO–UNICEF–Jahon banki CODI diagnostikasi islohotlardan oldingi institutsional holat uchun boshlang‘ich nuqta sifatida olindi. Unda ijtimoiy himoya tizimining turli idoralarga tarqalganligi va yagona koordinatsion institut yetishmasligi qayd etilgan.[11, 9–10-b.]

Uchinchidan, Yaponiya va Shvetsiya tajribasi O‘zbekiston uchun tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan mexanizmlarni aniqlash maqsadida benchmarking asosida qiyoslandi.

To‘rtinchidan, olingan natijalar nazariy sintez orqali yetti bo‘g‘inli institutsional modelga birlashtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Fragmentatsiyadan institutsional konsolidatsiyaga

2020-yilgi CODI diagnostikasida O‘zbekistondagi ijtimoiy himoya dasturlarining turli vazirlik va idoralarga tarqalganligi, umumiy koordinatsiya mexanizmining zaifligi qayd etilgan.[11]

2023-yildan Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Inson” markazlarining shakllanishi ushbu fragmentatsiyani kamaytirish uchun institutsional baza yaratdi. Bunda markaziy siyosiy koordinatsiya bilan birga mahalla darajasida ehtiyojni aniqlash mexanizmi ham shakllandi.

1-jadval. O‘zbekistonda keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish modelining transformatsiyasi

Mezoni	Avvalgi holat	2023–2026-yillardagi model	Sotsiologik mazmun
Boshqaruv	idoralar bo‘yicha tarqalgan	Ijtimoiy himoya milliy agentligi	institutsional konsolidatsiya
Mahalliy kirish	alohida tashkilotlar	“Inson” markazi + mahalla xodimi	xizmatning fuqaroga yaqinlashuvi

Mezoni	Avvalgi holat	2023–2026-yillardagi model	Sotsiologik mazmun
Ehtiyojni aniqlash	murojaat va toifa ustun	proaktiv aniqlash	yashirin ehtiyojni aniqlash
Xizmat dizayni	standart kategoriya	individual xizmat rejasi	individuallashtirish
Koordinatsiya	idoraviy yo‘naltirish	keys-menejment	integratsiya
Monitoring	xizmat faktini qayd etish	samaradorlik monitoringi	natijaga yo‘naltirish

Manba: muallif tomonidan CODI hisoboti va O‘zbekiston normativ-huquqiy hujjatlari asosida tuzildi.

Mazkur transformatsiyaning asosiy mazmuni ma’muriy tuzilmaning o‘zgarishida emas, xizmatni keksa insonning individual hayotiy vaziyati atrofida tashkil etish imkoniyatining kengayishidadir.

Mahalla ijtimoiy xodimi va individual xizmat rejasi

Mahalla darajasidagi ijtimoiy xodim yangi modelning asosiy kirish nuqtasiga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, mustaqil murojaat qilish imkoniyati cheklangan keksalar uchun muhim.

Shu bilan birga, mahalliylashtirish professional baholash bilan birga olib borilishi kerak. Ijtimoiy xodim faqat ariza qabul qiluvchi emas, ehtiyojni aniqlovchi, keysni boshqaruvchi va xizmatlarni koordinatsiya qiluvchi professional subyekt bo‘lishi zarur.

123-son qarorda nazarda tutilgan individual xizmat rejasi esa “kategoriya → standart xizmat” modelidan “individual vaziyat → baholash → maqsad → xizmatlar kombinatsiyasi” modeliga o‘tish imkonini beradi.[3]

Ammo individual reja haqiqiy personalizatsiya bo‘lishi uchun keksa insonning o‘zi maqsad va xizmatlarni belgilash jarayonida ishtirok etishi, reja esa monitoring natijasiga ko‘ra yangilanib borishi kerak.

O‘zbekiston, Yaponiya va Shvetsiya tajribasi

Yaponiyaning Community-Based Integrated Care System modeli sog‘liqni saqlash, nursing care, profilaktika, uy-joy va kundalik turmushni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini hududiy tizimda birlashtiradi. Xizmatlar care manager tomonidan koordinatsiya qilinadi.[12, 130-b.]

Shvetsiyada esa munitsipalitetlar home-care, shaxsiy parvarish, kunduzgi xizmat, personal safety alarm va companion-service kabi xizmatlarni tashkil etadi. Modelning markaziy maqsadi keksa insonning imkon qadar uzoq muddat xavfsiz va mustaqil yashashini ta’minlashdir.[13]

2-jadval. O‘zbekiston, Yaponiya va Shvetsiya institutsional modellari

Mezoni	O‘zbekiston	Yaponiya	Shvetsiya
Mahalliy institut	“Inson” markazi + mahalla xodimi	Community Support Centre	munitsipal social services
Koordinator	ijtimoiy xodim	care manager	municipal assessor / fixed contact
Baholash	multidissiplinar elementlar	kompleks needs assessment	individual municipal assessment
Xizmat modeli	ijtimoiy va tibbiy-ijtimoiy xizmat	integratsiyalashgan care	home-care va personal care
Aging in place	rivojlanayotgan	kuchli	kuchli
Monitoring	individual reja monitoringi	care-plan monitoringi	registr va munitsipal monitoring
O‘zbekiston uchun mexanizm	—	yagona care manager	fixed contact va home-care

Manba: muallif tomonidan OECD, Socialstyrelsen va O‘zbekiston normativ-huquqiy hujjatlari asosida tuzildi.

Qiyosiy tahlil O‘zbekiston uchun xorijiy modelni to‘liq ko‘chirish emas, balki alohida institutsional mexanizmlarni moslashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Yaponiyadan “bitta keys — bitta mas’ul koordinator”, Shvetsiyadan esa fixed-contact, uyda xizmat va aging in place mexanizmlarini mahalla tizimi bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

Yangi modelning kuchli va zaif jihatlari

O‘zbekiston modelining kuchli tomonlari sifatida yagona vakolatli institutsional markaz, mahalla darajasidagi professional kirish nuqtasi, individual xizmat rejasi, multidissiplinar baholash va maxsus “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonunning mavjudligini ko‘rsatish mumkin.

Shu bilan birga, to‘rtta xavf saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, formal individuallashtirish: individual reja standart xizmatlar ro‘yxatining yangi shakliga aylanib qolishi mumkin.

Ikkinchidan, yo‘naltirishni integratsiya bilan tenglashtirish xavfi mavjud. Fuqaroni boshqa tashkilotga yuborish hali idoralararo umumiy javobgarlikni anglatmaydi.

Uchinchidan, output bilan outcome’ni aynanlashtirish mumkin. Tashrif yoki xizmat soni keksaning mustaqilligi va hayot sifati yaxshilanganini anglatmaydi.

To‘rtinchidan, oilaviy yordam professional xizmatning to‘liq o‘rnini bosuvchi mexanizm sifatida qaralmasligi kerak.

Muallifning integratsiyalashgan institutsional modeli

Tahlil asosida keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning quyidagi yetti bo‘g‘inli modeli taklif etiladi.

3-jadval. Keksalarga xizmat ko‘rsatishning taklif etilayotgan institutsional modeli

Bo‘g‘in	Asosiy vazifa	Yetakchi subyekt	Natija
1. Proaktiv aniqlash	yashirin ehtiyojni topish	mahalla ijtimoiy xodimi	xizmatdan chetda qolishni kamaytirish
2. Kompleks baholash	funksional va ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash	multidissiplinar guruh	real ehtiyoj profili
3. Hamkorlikda maqsad	keksaning ustuvor maqsadini belgilash	keksa shaxs + xodim	person-centred maqsad
4. Individual paket	xizmatlarni kombinatsiyalash	“Inson” markazi	individual reja
5. Keys koordinatsiyasi	turli xizmatlarni bog‘lash	mas’ul keys-menejer	fragmentatsiyani kamaytirish
6. Aging in place	uy va mahallada mustaqillikni saqlash	xizmatlar + oila	institutsionalizatsiyani kechiktirish
7. Outcome monitoring	funksional va ijtimoiy natijani baholash	“Inson” markazi	qayta rejalashtirish

Mazkur model quyidagi zanjir orqali ifodalanadi:

institutsional kafolat → mahalliy kirish → kompleks baholash → foydalanuvchi ishtiroki → individual xizmat → yagona keys-menejment → aging in place → outcome monitoring.

Modelning markaziy xususiyati — keksa inson xizmatning passiv oluvchisi emas, xizmat dizaynida qatnashuvchi subyekt sifatida qaralishidir.

Xulosa

Tahlil Yangi O‘zbekistonda keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi fragmentatsiyalangan va ko‘proq murojaatga asoslangan modeldan integratsiyalashgan, mahallaga yaqin va individual ehtiyojga yo‘naltirilgan modelga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

2023-yildagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Inson” markazlarining tashkil qilinishi institutsional konsolidatsiyani, 2024-yildagi individual xizmat rejalari va multidissiplinar baholash mexanizmlari individuallashtirishni, 2026-yilgi “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonun esa professional ijtimoiy ishning huquqiy asoslarini kuchaytirdi.

Keyingi bosqichda quyidagi mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, murakkab ehtiyojga ega keksalar uchun “bitta keys — bitta mas’ul professional” prinsipini kuchaytirish;

ikkinchidan, gerontologik baholashga funksional qobiliyat, uy muhiti, ijtimoiy tarmoq, yolg‘izlik va shaxsiy maqsadlarni kiritish;

uchinchidan, aging in place xizmatlarini — uy muhitini moslashtirish, assistive technology, transport va companion-service’ni kengaytirish;

to‘rtinchidan, oilaviy parvarishlovchilarni professional tizimning substituti emas, hamkor va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj subyekt sifatida ko‘rish;

beshinchidan, xizmat samaradorligini tashrif va xizmatlar sonidan ko‘ra funksional mustaqillik, xavfsizlik, avtonomiya va ijtimoiy ishtirokdagi o‘zgarishlar bilan baholash.

Shu asosda Yangi O‘zbekiston uchun istiqbolli model quyidagicha umumlashtiriladi:

yagona davlat siyosati + mahalladagi professional kirish nuqtasi + kompleks gerontologik baholash + individual xizmat rejasi + yagona keys-menejment + idoralararo integratsiya + aging in place + outcome monitoring.

Mazkur model ijtimoiy xizmatlarni tashkiliy faoliyatdan keksa insonning real hayotiy imkoniyatlarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy institut darajasiga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 65 yosh va undan katta doimiy aholi soni, 2026-yil boshiga.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni, 5-band va tegishli ilovalar.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi 123-son qarori, 1-ilova, 26–28-, 44–48-bandlar.

[4] O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 23-iyuldagi O‘RQ-1159-son “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonuni.

[5] Hasenfeld Y. The Attributes of Human Service Organizations // *Human Services as Complex Organizations*. 2nd ed. Thousand Oaks: SAGE, 2010. P. 9–32.

[6] OECD. *Integrating Social Services for Vulnerable Groups*. Paris: OECD Publishing, 2015. P. 165–193.

[7] World Health Organization. *Integrated Care for Older People (ICOPE)*. 2nd ed. Geneva: WHO, 2025.

[8] Pani-Harreman K.E.M. et al. Definitions, Key Themes and Aspects of ‘Ageing in Place’ // *Ageing & Society*. 2021. Vol. 41(9). P. 2026–2059.

[9] Sodiqova Sh.M. *Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili*. Toshkent: O‘zMU, 2016.

[10] G‘aniyeva M.X., Latipova N.M., Alikariyeva A.N., Kalanova S.M. *Ijtimoiy ish nazariyasi*. Toshkent, 2018. B. 113–131.

[11] ILO, UNICEF, World Bank. *An Assessment of the Social Protection System in Uzbekistan Based on CODI*. 2020. P. 9–10, 92–95.

[12] OECD. *The Economic Benefit of Promoting Healthy Ageing and Community Care*. Paris, 2025. P. 130.

[13] Socialstyrelsen. *Elderly Care Services*. Sweden.